

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT
SIYOSATI 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрлович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА
ТУТГАН ЎРНИ 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжонова*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА 48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 56-60
- Utkirov Abbos Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-67
- Umronov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадилович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО
ТУРИЗМА 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 92-100

Гойипназаров Санжар Баходирович
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ120-126

Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI161-167

Мухамедова Феруза Баходир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА.....168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARINING QO'LLANILISHI181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
.....219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ233-237
- Aziz Hasanovich Rajabiy*
BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH238-242
- Malikova Sevar Samatovna*
BO'LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ247-251
- Хојитуроdова Маhлиyoхон Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES252-257
- Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL I266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

13.00.00- Педагогика фанлари

Raxmonova Gulrux Ulashevna,
Jismoniy tarbiya va sport turlari kafedrasida dotsenti v.b.,
Qarshi davlat universiteti

O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Annotatsiya. Respublikamizda xalq milliy harakatli o'yinlari millatimiz qadriyatlarini sifatida qayta tiklana boshlandi va hozirgi kunda nafaqat xalqimizning eng sevimli mashg'ulotiga aylandi, balki barcha ta'lim muassasalari o'quv rejalariga to'laqonli fan sifatida kiritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari, "Otda chopish", "Uloq", "Kamonda o'q otish", "Chillak", "Soqqa", "Besh tosh".

Rakhmonova Gulrux Ulashevna,
Acting associate professor of physical
education and sports department
Karshi State University

WAYS OF EFFECTIVE USE OF NATIONAL ACTIVE GAMES OF THE UZBEK PEOPLE IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS

Abstract. In our republic, the games of the popular movement began to revive as the values of our people, and now they have become not only a favorite pastime of our people, but are also included in the curricula of all educational institutions as a full-fledged subject.

Key words: national outdoor games of the Uzbek people, "Horse riding", "Capricorn", "Archery", "Chillak", "Sokka", "Five stones".

Рахмонова Гулрух Улашевна,
и.о. доцента кафедры физического воспитания и спорта.
Каршинский государственный университет

ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДЕЯТЕЛЬНЫХ ИГР УЗБЕКСКОГО НАРОДА НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В нашей республике начали возрождаться игры народного движения как ценности нашего народа, и теперь они стали не только любимым занятием нашего народа, но и включены в учебные программы всех общеобразовательных учреждений как полноценная объемный предмет.

Ключевые слова: национальные подвижные игры узбекского народа, «Катание на коне», «Козерог», «Стрельба из лука», «Чиллак», «Сокка», «Пять камней».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N44>

Respublikamizda xalq milliy harakatli o'yinlari millatimiz qadriyatlari sifatida qayta tiklana boshladi va hozirgi kunda nafaqat xalqimizning eng sevimli mashg'ulotiga aylandi, balki aksariyat ta'lim muassasalari o'quv rejalariga to'laqonli fan sifatida kiritilgan.

Jismoniy tarbiya tizimida o'zbek xalq milliy o'yinlaridan keng foydalanish o'quvchilarning dunyoqarashini, jismoniy va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan. O'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiyasini milliy lashtirish milliy o'yinlarni to'plash, hayotga tatbiq etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu sabab milliy o'yinlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni maktab, bog'cha o'quv dasturlariga kiritish, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turlarini sport darajasiga ko'tarish soha mutaxassisleri oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Milliy harakatli o'yinlar vositasida yosh avlodning jismoniy sifatlarini rivojlantirish darajasini ko'tarish maqsadida 1-4 sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar vositasi bilan jismoniy sifatlarini rivojlantirishda yangi uslubiy yondashuvlar izlanmoqda hamda ishlab chiqilmoqda[3].

A.Atoev (1988), T.Usmonxo'jayev (1992), M.Rahimov (1996) F.Nasriddinov (1998) kabi respublikamiz olimlari milliy o'yinlarni o'rganish, ularni xalq orasida ommalashtirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy ishlarni, nashrlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarini hayotga tatbiq etishga kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus olishi, oilada, bog'chada, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni o'tkazilishi o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy xalq harakatli o'yinlari "Otda chopish", "Uloq", "Kamonda o'q otish", "Chillak", "Soqqa", "Besh tosh" va boshqa shu kabi o'yinlar orqali botirlik, epchillik, tezkorlik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirish hamda qaddi-qomatni shakllantirish, axloq-odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatta sog'liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo'lib kelgan[8].

Ammo, shuni ham ta'kidlash zarurki, xalq milliy harakatli o'yinlarining ilmiy-uslubiy asoslari, ularning psixofunksional mohiyati, jismoniy sifatlar va sport mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati hamda qiymati hali deyarli o'rganilmagan.

O'zbek xalq harakatli o'yinlari tasnifi va tavsifi jih maskanlaridagn atidan xalqning o'ziga xos urf-odatlaridan, turmush sharoitidan, yashash iqlimi, tarixiy obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, shularga yarasha jinsiga, yoshiga, salomatligiga ko'ra qo'llanilgan[2].

O'zbek xalq o'yinlari quyidagicha tasniflanadi:

-hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar:osilish va tirmashib chiqishga "Oq ayiqlar", yurish va yugurishga "Quvlashmachoq", "Mokki", o'tirish va turish "Baqa", "Tovuq va tulki";

-jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar:kuchga "Tortishma-choq", Tezkorlikga "Kun va tun", Epchillikka "To'p uchun kurash", "Lapta", "Qirq tosh", Chidamlilikga "Quvib yet", Egiluvchanlikga "Ko'prik va mushuk";

-aqliy-ruhiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o'yinlarga: diqqatni oshirishga "Ta'qiqlangan harakat", xotirani mustaxkamlashga "Daqiqa", hissiyotga "To'xta", tafakkurni o'stiruvchi "Shaxmat", ayyorlik uchun "Vandan-zo'ri", jasurlik uchun "Cho'nqa shuvoq";

-uy-ro'zg'or ishlariga xos o'yinlarga:"Supur-supur", "Qovun uzatish";

-kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi o'yinlar:"Otishma";

-nutq va talaffuzni shakllantiruvchi o'yinlar:"Oq terakmi, ko'k terak";

-hisob-kitobga doir o'yinlarga:"Besh tosh", "Lanka", "Qirq tosh";

-yil fasllarga doir o'yinlarga:"Varrak", "Chillak", "Tez ayt", "yong'oq";

-kunduz va tunda o'tkaziladigan o'yinlarga:"Oq suyak", "Cho'loq qarg'a";

-suvda o'tkaziladigan o'yinlarga:"Suvda quvlashmachoq", "Tez suzish";

-turli yoshli bolalar va kattalar o'rtasida o'tkaziladigan o'yinlarga:"Quvlashmachoq", "Bekinmachoq", "Bayroqcha uchun kurash", "Yong'oq o'yini",

-o'g'il va qiz bolalar o'rtasida o'tkaziladigan o'yinlarga:"Eshak mindi", "Xo'rozlar jangi", "Arqon sakrash", "Mindi", "Ovga chiqish", "Soqqa", "Quloq cho'zma", "Durra", "Chori-chambar";

-darsning tayyorgarlik qismida doir o'yinlar:"Tez o'z o'rniga", darsning asosiy qismida qo'llaniladigan o'yinlarga"Otib qochar", "Qirq tosh", darsning yakuniy qismida qo'llaniladigan o'yinlarga"Kim keldi", "Kimni ovozi", "Durra soldi", "Daqiqa";

-sport turlariga xos harakat malakalarini shakllantirishda qo'llaniladigan o'yinlarga "Qal'a himoyasi", "To'pni qaytar", "Uzatdingmi o'tir", "Quvib yet", "o'ylab top", "G'ovvoslar;

-sog'lomlashtirish maskanlaridagi o'yinlarga:"Semir pufagim", "Insiz quyon", qo'shiqlar bilan ijro etiladigan o'yinlarga"Lapkar", "Tez aytish";

-to'ylarda qo'llaniladigan o'yinlar "Oq suyak";

-harbiy ko'nikma, malakalarni shakllantiruvchi o'yinlar:"Asir olish";

-xalq sayil va marosimlaridagi o'yinlar "Qiz quvish" "Olomon poyga", "Uloq" kabi o'yinlar kiradi.

Milliy harakatli o'yinlar dars, darsdan tashqari vaqtlarda o'qituvchi, faollar tomonidan o'tkaziladi. O'qituvchi darsga o'quvchi organizmiga har tomonlama samarali ta'sir ko'rsatadigan, turli mashq va harakatli o'yinlarni tanlaydi, o'yinlarni o'tkazish uslubiyatini o'zgartirib turadi. Xamisha darsda, turli o'yinlarni o'tkazish jarayonida o'rganiladigan materialning uslubiy jihatdan izchil bo'lishiga e'tibor beradi. Bu, jismoniy tarbiya darsining ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini to'g'ri hal qilish, dars mavzularining to'la o'tilishiga erishish, butun dars davomida har bir mashqni muayyan me'yorda to'g'ri olib borish imkonini beradi[4].

Dars boshida yoki o'rtalarida zo'r e'tibor berishni va moslashtirilgan murakkab harakatlar qilishni talab etadigan o'yin va mashqlar o'tkazilsa, dars oxirida o'quvchilarning charchagan organizmini birmuncha tinch holatga keltirishga yordam beradigan o'yin va mashqlarni o'tkazish kerak. Agar, dars boshida bolalar diqqatini to'plash uchun "O'ylab top" yoki "Tezda hamma joy-joyiga", "Ma'n qilingan harakat" singari o'yinlar o'ynalgan bo'lsa, darsning asosiy qismida harakatchanroq o'yinlarni "quvnoq bolalar", "qoch bolam, kalxat keldi" kabi o'yinlarni o'tkazish tavsiya yetiladi[5].

O'rta yoshdagi o'quvchilar bilan darsning asosiy qismida "cho'pon, qo'y va bo'ri", "oq tosh", "oq ayiqlar" kabi o'yinlar o'tkazilsa, darsning yakunlovchi qismida esa kam harakatli "pat",

“pr-r-r...” kabi o‘yinlarni o‘tkazish tavsiya qilinadi. Agar butun dars jarayoni faqat o‘yin materiallaridan iborat bo‘lsa, serharakat o‘yinlarni kam harakatli o‘yinlar bilan, aksincha bir xil tavsifdagi o‘yinni ikkinchi xil tavsifdagi o‘yin bilan navbatma-navbat almashtirib o‘tkazish kerak[6].

O‘qituvchi o‘yin texnikasining ayrim elementini “To‘pni onaboshiga berma” yoki “To‘p ilish” o‘yinlari yordamida bolalarga to‘p uzatish va ilib olishni o‘rgatishni o‘yin yordamida bolalarga o‘rgatish yuzasidan o‘z oldiga muayyan maqsad va vazifalar qo‘yadigan bo‘lsa, u o‘yin materialining mazmuni va yo‘nalishini puxta o‘ylab chiqib tegishli uslubiy ko‘rsatmalarga amal qilib va ba‘zi bir o‘zgarishlar kiritib o‘tkaziladigan o‘yin-estafeta yordamida bajarilsa, maqsadga erishish mumkin. Aks xolda o‘ynayotganlarning asosiy e‘tibori to‘pni tez uzatish va ilib olish bilan band bo‘lib, texnika elementlarining to‘g‘ri bajarilishiga rioya qilinmaydi[3].

O‘ynovchilarni charchatib qo‘ymaslik uchun hayajonli va ermak o‘yinlarni ko‘p o‘tkazmasdan, ularni bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va organizmining imkoniyatini hisobga olgan holda boshqa xil o‘yin va mashqlar bilan qo‘shib olib borish, ayrim o‘quvchilarda charchash belgilarini (rang uchishi, harakatlar sustligi va o‘yinni davom ettirishni istamaslik) kabi belgilardan sezishi kerak[2].

Jismoniy tarbiya darsining muhim xususiyatlaridan bir vaqtni bir me‘yorda o‘quvchilarni darsga faol qatnashtirish uchun barcha imkoniyatlardan har bir o‘yin va har bir qatnashchi uchun vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, shuningdek hamma o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlarning bir me‘yorda bo‘lishiga erishishdan iborat. Bunga:

1. Agar o‘quvchilar soni sinfda juda ko‘p bo‘lsa, ularni bir necha guruhgabo‘lish, topshiriqni bajarish uchun beriladigan vaqt qisqartirish;

2. O‘yin paytida qoidalarni buzgan qatnashchilarni o‘yindan chiqarib yubormasdan, aksincha ularga jarima ochkolari berish orqali o‘yinda ishtirokini ta‘minlash;

3. O‘yinning bo‘linib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun, unga oldindan yaxshilab tayyorgarlik ko‘rish, o‘yin mazmuni, qoidasi va o‘tkazish tartibi bilan o‘quvchilarni to‘liq tanishtirish;

4. O‘yin mohiyatidan kelib chiqib o‘tkaziladigan joy va o‘yin uchun kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo‘yish;

5. O‘yin o‘tkazish uchun sport maydonlarining imkoniyatlarini va sinf o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, o‘quv dasturida tavsiya etilgan o‘yinlarni o‘zgartirish va ularga qo‘shimchalar kiritishi yo‘li bilan erishish mumkin[1].

Harakatli o‘yinlar ob-havo sharoitini hisobga olib o‘quv yili chorak-lari bo‘yicha rejalashtiriladi, ikkinchi chorakdan boshqa barcha choraklarda mashg‘ulotni ochiq havoda o‘tkaziladi. Shunga qaramay, yaxshi ob-havo sharoitiga mo‘ljallangan o‘yinlarni rejalashtirganda ehtiyot shart bu o‘yinlar o‘rniga binoda o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan o‘yinlarni ham mo‘ljallab qo‘yish kerak[3]. Har bir chorak oxirida belgilangan nazorat mashqlarga bog‘lab turli jismoniy mashqlar jamlanmasidan iborat bo‘lgan o‘yinlarni kiritish kerak. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini, orttirgan malakasini hamda ular harakatlarining tezligi va uyushqoqligini tekshirishga yordam beradi[7].

IV-sinfda yurish ko‘nikmalarini hosil qilishda jo‘r bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar, musiqaga jo‘r bo‘ladigan o‘yinlar, she‘r vazniga moslashtirib o‘ynaladigan o‘yinlar, shuningdek, harakatlarda bolalarda ijodiy xayol va mustaqillikni o‘stirishga yaxshi yordam beradigan “o‘razan-bo‘razan”, “pat”, “pr - r-r...”, “oq terakmi, ko‘k terak” kabi o‘yinlarni tanlash va o‘tkazish

ham juda muhimdir. Dars bir necha o'yindan iborat bo'lsa, ular turli xarakterda bo'lishi, o'yindagi mashqlar va harakat elementlari bir xil bo'lmasligi lozim. O'qituvchi har bir darsning aniq vazifasini nazarda tutib birorta harakatli o'yinning asosiy vazifasini aniqlashi kerak[1].

7-10 yoshli o'quvchilar uchun o'yinlar darsni asosi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun o'quv dasturida o'yinlarga boshqa materiallarga nisbatan ko'proq o'rin ajratiladi. Buning sababi shundaki, dasturga kiritilgan turli xil jismoniy mashqlarni bolalar xilma-xil o'yinlar vositasida osongina idrok qiladilar va o'zlashtiradilar. Masalan, yugurib kelib uzunlikka sakrashni o'rgatish mashqini tushuntirish, ko'rsatib berish, bajarish va xatolarni tuzatish bolalar uchun juda zerikarli bo'ladi. Agar bu vazifani hal qilish uchun "Bo'ri zovur ichida" o'yinidan foydalanilsa, maqsadga osongina erishiladi. Agar darsni asosiy qismi basketbol texnikasi elementlarini o'rgatishga qaratilgan o'yindan iborat bo'lsa, kirish qismida "Uzatdingmi o'tir", "To'plar poygasi" kabi harakatli o'yinlardan foydalanish mumkin. Bunday hollarda darsning asosiy qismiga "Ovchilar va o'rdaklar", "Otishma" o'yinlari kiritiladi[2]. Bu yoshdagi bolalar bilan oddiy va o'rtacha murakkab o'yinlarni o'tkazish bilan birga, agar bolalar jamoasi yetarli darajada tayyorlangan bo'lsa, ancha murakkabroq, ya'ni jamoalarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni ham o'tkazish mumkin.

Xulosa qilib aytganda xalq milliy o'yinlarini millatimiz qadriyatlarini sifatida qayta tiklash maqsadida barcha ta'lim muassasalari o'quv rejalariga to'laqonli fan sifatida kiritish undan jismoniy tarbiya tizimida keng foydalanish o'quvchilarning dunyoqarashini, jismoniy va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlaydi.

Shuningdek o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradi, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiyasini milliy lashtirish milliy o'yinlarni to'plash, hayotga tatbiq etish ishlari amalga oshirishdan iborat.

Shu sabab milliy o'yinlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni maktab, bog'cha o'quv dasturlariga kiritish, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turlarini sport darajasiga ko'tarish soha mutaxassislari oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Nasriddinov F.N. O'zbek xalq milliy o'yinlari. T.: 1993. – 27 b.
2. Rasulov A.T. Narodniye podvijniye igri. T.: 1994.-71s.
3. Rasulov A.T., Pulatov A.A., Qosimova M.U. O'zbek xalq o'yinlari ularning tasnifi va tavsifi. //O'quv qo'llanma. T.: 1996. – 98 b.
4. Raximqulov K.D. "Milliy harakatli o'yinlari" O'quv qo'llanma T.: 2012 y.
5. Usmonxo'jayev T. "Harakatli o'yinlar" O'quv qo'llanma T.: O'qituvchi 1992 y.
6. Usmonxo'jayev T.S., Qosimova M.U. 500 mashq va harakatli o'yinlar. T.: 1999. - 60 b.
7. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. 1001 o'yin. T.: Ibn-Sino, 1990. – 350 b.
8. Xo'jayev P., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma TDPU T.: 2008 y.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).